

ZAMONAVIY O‘ZBEK NASRIDA TANATOLOGIK MOTIVLARNING BADIY  
ESTETIK FUNKSIYASI  
(NAZAR ESHONQUL IJODI MISOLIDA)

Shohzoda Tursunboyeva,

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi,

G-mail: [tursunboyevashahzoda98@gmail.com](mailto:tursunboyevashahzoda98@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada Nazar Eshonqul nasridagi tanatologik (o‘limga oid) motivlarning badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Adib asarlarida o‘lim, o‘lik, qabr, tobut, taqdir va ruhiy tanazzul bilan bog‘liq obraz hamda motivlarning syujet qurilishi va g‘oyaviy mazmuni shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Tanatologik motivlarning mifopoetik, falsafiy va psixologik asoslari ochib berilib, ular orqali inson mavjudligi, hayot mazmuni va o‘lim mohiyatiga oid qarashlar ifodalanishi ko‘rsatildi. Muallif ijodida o‘lim motivining markaziy mavzu sifatida namoyon bo‘lishi ilmiy jihatdan asoslandi.

**Kalit so‘zlar:** Nazar Eshonqul, tanatologiya, o‘lim motivi, tanatos, mifopoetika, qabr, tobut, o‘lik obrazi, zamonaviy o‘zbek nasri, badiiy estetika.

**Аннотация.** В статье исследуются художественно-эстетические особенности танатологических мотивов в прозе Назара Эшонкула. Анализируется роль образов и мотивов смерти, мёртвых, могилы, гроба, судьбы и духовного кризиса в построении сюжета и раскрытии идейного содержания произведений писателя. Рассматриваются мифопоэтические, философские и психологические основы танатологических мотивов, посредством которых раскрываются вопросы человеческого существования, смысла жизни и сущности смерти. Обосновывается положение о том, что мотив смерти занимает центральное место в художественной системе автора.

**Ключевые слова:** Назар Эшонкул, танатология, мотив смерти, танатос, мифопоэтика, могила, гроб, образ мертвеца, современная узбекская проза, художественная эстетика.

**Abstract.** The article examines the artistic and aesthetic features of thanatological motifs in the prose of Nazar Eshonqul. It analyzes the role of motifs and images related to death, the dead, graves, coffins, fate, and spiritual decline in the development of plot and ideological content. The study reveals the mythopoetic, philosophical, and psychological foundations of thanatological motifs and demonstrates how they express ideas about human existence, the meaning of life, and the essence of death. The article argues that the motif of death functions as a central aesthetic category in the writer's artistic worldview.

**Keywords:** Nazar Eshonqul, thanatology, death motif, Thanatos, mythopoetics, grave, coffin, image of the dead, contemporary Uzbek prose, artistic aesthetics.

**Kirish.** Badiiy asarda tanatologik motivlar inson hayotining o‘tkinchiligi, o‘limning muqarrarligi va uning falsafiy-ma‘naviy hamda hissiy jihatlarini yoritib, syujet va qahramonlar xarakteri rivojiga xizmat qiladi. Ular hayot mazmuni, abadiylik va yo‘qotish kabi abadiy savollarni ochib beradi.

Bir ijodkorda tanatologik motivlarning ko‘pligi ko‘pincha psixologik omillar — shaxsiy kechinmalar, yo‘qotishlar, ruhiy iztirob va yolg‘izlik bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, falsafiy dunyoqarash, ijtimoiy-tarixiy sharoit (urush, qatag‘on, epidemiya) hamda adabiy an‘analar ham bu motivlarning kuchayishiga ta‘sir qiladi.

“Biror yozuvchining hayot va o‘lim masalalariga bo‘lgan munosabatini ko‘rib chiqish uning ijodining rivojlanishini, diniy-falsafiy qarashlarini va san‘atning ruhiy manbalariga qanchalik yaqinligini kuzatishga imkon beradi”. [1.3] – deb hisoblaydi bu mavzuda

tadqiqot olib borgan rus olimi T.Safonova. Umuman olganda, har bir ijodkorda tanatologik mavzularni yoritish usuli va maqsadi turlicha bo'lishi mumkin, ammo bu mavzu doim adabiyotning o'zgaras qismi bo'lib kelgan. Xususan, inson mavjudligining muhim muammolaridan biri – o'lim hodisasini badiiy talqin qilish, hayot haqida falsafiy mushohadalar yuritish atoqli o'zbek yozuvchisi Nazar Eshonqul ijodiy konsepsiyasida, ayniqsa, yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ijodida qora rang, zulmat va o'lim bilan bog'liq motivlar ko'p ishlatilishining sababi haqida berilgan savollarga muallifning o'zi "Kitob bandasi" nomli ilmiy-publitsistik asarida buni mumtoz adabiyot va xalq og'zaki ijodidan olgan ilhomi va ta'sir kuchi deb izohlaydi. Navoiy, Bobur va Mashrab g'azallaridagi "qoralik", "tun", "zulmat" tasvirlari, shuningdek, go'rda tug'ilgan Go'ro'g'li, yetti yil zulmatda zindonband qilingan Alpomish, sandiqda daryoga oqizib o'limga hukm qilingan Tohirning achchiq qismati va "Xamsa"dagi qahramonlar fojiasini eslaydi. Asarlardagi qora rang, tushkun ruh va fojeliq singib ketganining tub ildizlari ana shu miflarga nisbatan: "Nega go'rda tug'ildi, Nega zindon qilindi? Nega shahzoda bo'la turib o'lim topdi? Buyuk xalq va buyuk ajdodlar tafakkuri bizga bu orqali nimalar deyapti? Bu yerda qanday falsafiy kalit bor..?" [2.374] kabi nihoyasiz savollarga aqli, idroki qabul qilganicha javob izlashga uringani natijasi sifatida baholaydi. U voqealarga emas, ularning mohiyatiga ahamiyat qaratishini ta'kidlab kelgan, shu jumladan o'lim hodisasi mazmuniga ham shunday yondashadi. Demak, Nazar Eshonqul ijodida ifodalangan o'lim konsepsiyasi o'zining mifopoetik va falsafiy mohiyatiga ega. Lekin 2022-yilda nashr qilingan II jildlik saylanmasiga kirgan turli janrdagi asarlari tahlil qilinsa, tanatologik elementlar konsentratsiyasining o'ta quyuqligiga ko'ra buning shaxsiy-psixologik asoslari ham mavjudligini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Shuningdek, adib ijodidagi tanatologik ifodalar mistik, esxatologik (oxirzamon)va marginallik (jamiyat yoki madaniyat oqimidan chetda turish) xossalari bilan e'tiborlidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda Nazar Eshonqul ijodidagi tanatologik motivlarni o'rganishda kompleks adabiyotshunoslik yondashuvi qo'llanildi. Asosiy metod sifatida matn tahlili va g'oyaviy-badiiy interpretatsiya tanlandi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi: tavsifiy metod (asarlardagi tanatologik motivlarni aniqlash), strukturaviy tahlil (obraz va motivlar tizimi), qiyosiy metod (jahon va o'zbek adabiyoti kontekstida), hamda mifopoetik va psixologik yondashuv (o'lim motivining falsafiy mazmunini ochish).

Shuningdek, kontekstual tahlil orqali hikoya va romanlardagi o'lim, qabr, tobut kabi obrazlarning syujetdagi funksiyasi o'rganildi. Tadqiqot materiali sifatida adibning "Saylanma" asarlari va zamonaviy ilmiy manbalar asos qilib olindi.

**Tahlillar va natijalar.** Nazar Eshonqul ijodida dunyoning o'limga yaqinligi va tanatos g'oyasi yetakchi o'rin tutib, yozuvchi inson, jamiyat, tabiat va makonni yemirilishga mahkum hodisa sifatida tasvirlasa, bu holat o'lik shahar, tobut, qabr, qabriston, dor,

qorong‘u bino kabi tanatologik obraz va detallar orqali ifodalangan. Teatr, sahna, o‘yin singari ramziy jarayonlar esa hayot va o‘limning falsafiy talqinini kuchaytiradi.

Nazar Eshonqul poetikasida tanatologik tushunchalar asar sarlavhasiga ham chiqqanini alohida ta’kidlamalik mumkin emas: “Tobut”, “Qatl”, “O‘lik mavsum” kabi hikoyalari bunga dalil, shuningdek, “Go‘ro‘g‘li yohud hayot suvi” romanining dastlabki nomi esa “Lahad” bo‘lgan.[3.4] “O‘lik” obrazi esa adib hikoyalarida yetakchi tanatologik timsoldir. Mistik ruhdagi “O‘lik mavsum”da talabalarga bir yil dars bergan ustozning murda ekani ayon bo‘lsa, “Qatl”da shaharni bosgan o‘liklar tasviri orqali o‘lim motivi markaziy o‘rinni egallagan. Bu hol Nazar Eshonqul badiiyatida tanatologik elementlar ustuvorligini ko‘rsatadi, o‘ziga xos jihati esa, “O‘lik mavsum”dagi ustozning tashqi portretidagi “qoq suyak” tana, “xira sham yang‘lig‘ pirpirab turuvchi ko‘zlar”, “zah tuproq hidi” [4.231] kabi o‘limga oid sifatlar an’anaviy qo‘rquv hislarini uyg‘otish emas, balki sir va ulug‘vorlik bag‘ishlashga xizmat qilgan. Ichki qiyofasida ham kibr, yolg‘izlik va zardalik mujassam bo‘lsa-da, u talabalarga kuchli ta’sir o‘tkaza olardi. Uning ma’ruzalari hayot haqida so‘zlab, o‘lim haqida o‘ylashga majbur etishini ta’kidlaydi hikoyachi qahramon. Bu obrazning mohiyati esa “Tana o‘lib ketaveradi, g‘oya yangi avlod bilan yangidan tug‘ilaveradi. G‘oyani o‘ldirib bo‘lmaydi. U yangi avlod bilan yangi mazmun kashf etib tug‘ilaveradi” [4.232] degan fikrida ochiladi. Asar yakunida ustozning istiqomat o‘rni qabriston bo‘lib chiqishi esa, qabr timsolida jismoniy o‘limga qaramay, ruh va g‘oyaning davomiyligi ma’nosini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Lekin shuni unutmash kerakki, badiiy asardagi har qanday o‘limga oid elementni ham badiiy tanatologiya uchun obyekt qilib bo‘lmaydi. Biroq, Nazar Eshonqul badiiyatida o‘limni sifatlash, tasvirlash, ifodalash san’at darajasiga chiqqanini tan olish lozim. Ijodkor har qanday detal, hodisa yoki obrazda tanatologik atribut topa olgan, jumladan, odamning tiriklik funksiyasi uchun asosiy vazifa bajaruvchi yurak urishini qatl nog‘orasiga o‘xshatishi buning mukammal dalilidir: *“ko‘ksimizda yurak emas, qatl nog‘oralari gursillab urayotgandek, bir-birimizga qo‘rquv va xasrat bilan tikilib qolardik”* [4.191] Shuningdek, “Tobut shahar”ning loyihasini chizib bergan me’morning yuzidagi ajinlar qishki qabristonga, ko‘zidagi junun esa dalani bosib ketgan kuzgi qarg‘alarga qiyoslanishi umuman, bunday tanatologik atributlar juda ko‘p uchraydi.

N.Eshonqulning “Farishta” hikoyasida hayot va o‘lim qarama-qarshiligiga mifopoetik yondashilib, u “o‘yin” motivi vositasida loyihalashtirilgan. Butun umr bolalar dunyosidan kattalar olamiga o‘tmay, to‘qayda o‘yin o‘ynab yashagan Sancho (Boyqul)ning o‘limi ham o‘yin orqali sodir bo‘ldi. Bu o‘yin ham xuddi haqiqiy kattalar hayotidagi kabi shafqatsiz kurash va “o‘ldirish”dan iborat edi. Muallif “qurol”, “qon”, “dushman”, “maxluq”, “maxluq qal’asi”, “jon olish”, “o‘lmas bo‘lish” kabi o‘yin terminlari orqali yasama vositalarni chinakam hayotiy jarayonga proyeksiya qiladi. Umri davomida bunday yaxshiy o‘yin ko‘rmagan tersotaliklarning yosh-u qarisi ichida mashhur bo‘lgan bu yangi o‘yin tashabbuskori ham Sanchoning nabirasi ekanligi, hikoya so‘nggida “eng uzoq o‘ynagan

o'yini"dan behad charchagan Sancho nabirasi tomonidan g'ayrushuuriy tarzda o'ldirilishi ham ramziy ma'noga ega. Ayniqsa, hikoya tersotaliklarning *"Boyqul bilan birga tersotaning bolalik davri ham tugaganini sezib tobut ortida boshlarini egib borishardi"*. [4.508] tasviri bilan yakunlanishidan ma'lumki, Sanchoning o'limi zamon o'zgarishi bilan avlodlar orasida yuzaga kelgan masofa va ziddiyatlar ramzi, "o'lim" haqidagi o'yinlar nimaligini bilmay to'qayda ming xil beg'ubor o'yinlar ixtiro qilib yashab yurgan avlod intihosining timsoli edi.

"Bepoyon osmon" hamda "Qultoy" hikoyalaridagi ayol qahramonlarning keksalik tufayli tabiiy o'lim hodisalari esa hikoya tugunini yechuvchi va sirlarni fosh qiluvchi ekstremal vaziyat hosil qilgan. Ikki hikoyada ham hayoti davomida o'zi aziz deb bilgan kishisiga sodiq, ammo butun umr qilgan qurbonligi atrofdagilar tomonidan sezilmagan, anglanmagan, qadr topmagan ayollarning butun umrlik sukunati sababi ularning o'limidan so'ng oshkor bo'ladi. Ushbu hikoyalar milliy xarakter yaratishning pishiq namunasi bo'lib, ayol qahramonlar tasvirida milliy o'ziga xoslik, an'anaviy indamas, bo'ysunuvchan va qurbon ayollar xarakter qirralari yaqqol namoyon bo'lgan. E'tiborli jihati, bu qahramonlar mohiyatini "Qora kitob" qissasidagi professorning fikrlari bilan to'ldirish mumkin. Unga ko'ra, "Insoniyat qo'y va bo'rilarga bo'lingandi" ana shu fikrning isboti sifatida yuqoridagi hikoyalarda *"...yuvosh, azob uqubatdan, xo'rlig-u haqoratdan boshi chiqmaydigan qancha ezsa ezuvchini, qancha zo'rlasa zo'rovchini, qancha toptasa toptovchini, qancha aldasa aldovchini yaxshi ko'radigan..."* qurbon obrazlari va ularga qarshi tomonda *"... ezish va xo'rlashga, bosib yanchishga, dunyoni o'zgartirishga, uni yangilash va mezunga solishga loyiqlar yashashar, ular o'z oldilariga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirish uchun g'ajishga tayyor"*. [5.529] qahramonlar qo'yilar, bu ziddiyatlar to eziluvchi tomonning o'limi yuz bermaguncha davom etardi. Qarangki, har ikki hikoyadagi eziluvchi ayol qahramonlar uzoq umr ko'rib, tabiiy o'lim bilan vafot etadi va hayotlari davomida beminnat fidoyilik vazifasini ado etishgani bois "Qultoy"da Arzixol zarang daraxtiga, "Bepoyon osmon"dagi yanga esa cheksiz sabr-toqati bilan osmonga qiyoslanadi.

Inson hayotidagi taqdir, qismat va qadar tushunchalarining sirli mohiyati "Bitik" hikoyasida qismatning ilohiy iroda bilan bog'liqligi va inson uni o'zgartira olmasligi g'oyasi ilgari surilgan. Bu fikr Kultegin bitiktoshidan olingan "Men mangu toshga hammasini o'yib yozdim" jumlasini orqali epigraf sifatida ta'kidlanadi. Hikoya muallifning eng qisqa va syujeti jihatdan ixcham asarlaridan biri bo'lib, keskin dinamika bilan rivojlanadi hamda mashina yo'lovchisining o'limi bilan yakunlanadi: *"...U kitob o'qib o'lajak"*. [4.303] Qisqa hajmga qaramay, unda taqdir motivi kitob va bitik detali orqali mukammal ochilgan. Adabiyotda qadar motivi ko'pincha sehrli belgi, tush, ruhiy xabar yoki taqdir kitobi vositasida ifodalanishini kuzatish mumkin. Masalan, Sharq ertaklarida qahramon o'z qismatini avvaldan bitilgan kitob orqali bilishi, islomiy qarashlarda esa inson taqdiri "Lavh ul-mahfuz"da yozilgan deb e'tiqod qilinishi yoki boshqa diniy-falsafiy

ta'limotlarda ham, ayniqsa, buddizmdagi karmaga ko'ra taqdirning muqarrarligi ta'kidlangan. Jahon adabiyotida, xususan, Shoh Edip kabi antik tragediyalarda ham qahramonlar belgilangan qismatdan qochib qutula olmaydi va fojiaiy yakunga duch kelgan.

Badiiy asarda o'lim hodisasi ishtirok etishi doim nimanidir boshlab, yakunlab yoki izohlab beradi. Bulardan qay biri yuzaga kelishi o'lim asar syujetining qaysi o'rnida kelishiga bog'liq. Xususan, agar asar kimningdir o'limi xabari bilan boshlansa, katta ehtimol bilan butun asar syujeti shu o'lim atrofidagi voqea-hodisalar bilan bog'liq bo'ladi. Xuddi "Ajr" hikoyasidagi kabi. Biroq, asosan, dedektiv asarlar syujetida muqaddima ko'pincha sirli o'lim motivi asosiga quriladi. Lekin, Nazar Eshonqulning "Qalb to'zoni", "Xayol tuzog'i" kabi hikoyalari va "Go'rog'li yohud hayot suvi" romani dedektiv janrda bo'lmas-da, qahramonlarning sirli tarzda o'lim topishi bilan, ularning ongida kechgan o'y-xayollari ko'rsatgan yo'nalish orqali, dahshat va xayol unsurlari bilan o'quvchi ularning o'lim sabablarini aniqlashga urinadi va butun asar syujeti shu o'lim asosiga qurilgan.

"Xayol tuzog'i" va "Qalb to'zoni" hikoyalari rivoya usuli, syujeti va obrazlari jihatidan bir-biriga yaqin. Ikki hikoyada ham qahramon o'limi tafsilotlarini bilish maqsadida o'lgan personaj kundaligini o'qish jarayonida uning ong oqimidagi kechmishlaridan voqif bo'lish mumkin. Har ikki hikoyada o'lim vasvasasi mudom qahramonni ta'qib qiladi. "Xayol tuzog'i" da o'lim go'zal malika shaklida yigitni o'ziga rom qilib ortidan ergashtirsa, "Qalb to'zoni"da miyani yeydigan maxluq ko'rinishida uni nobud qilgan. Bu hikoyalarda qahramonlar o'z ruhini zulmatga botirishadi, haqiqiy hayotdan chetlashib, xayoliy dunyolariga o'tishadi. Ular o'z xayolining vasvasasi asiriga aylanishib, haqiqiy hayot ularni hech narsasi bilan jalb qilmay qo'yadi. "Nazar Eshonqul mazkur hikoyasida qo'rquv motivining badiiy talqinida uy (sirli bino)" mifologemasidan, Noma'lumlik, Yo'qlik, O'lim kabi tushunchalarning jonlantirilgan mifologik obrazlaridan mahorat bilan foydalanib, bugungi kun mifini yaratadi".[6.15] "Qalb to'zoni" hikoyasidagi yozuvchi yigit xarakterida mavjud tanatos (o'limga intilish)ni u yozgan hikoyalaridagi manzara, majoz va tasvirlardan ham bilish mumkin: *"xalqalari mustahkam va hech qachon uzib bo'lmas zanjir, ko'chalarda o'lja izlab uvillab yurgan o'lim, qabrlarga boshlab boradigan yo'l, qaygadir shoshib ketishayotgan boshsiz odamlar, ko'zlari chippa ko'r bobolari izidan tizilib borayotgan bolalar, faqat qo'zichoq tug'adigan ayol, umr bo'yi hech kim sotib olmaydigan xanjarni yasab o'tirgan telba usta, donishmandning boshini ko'ptok qilib tepayotgan olomon"*. [4.219] Yozuvchi qahramonning asarlari shu manzaralardan iborat edi. Bu manzaralar tanatologik motivlarning yuqori darajada jamlanganligi bilan ajralib turadi. O'lim atributlarining san'at namunasida bunday jamlanishi "Maymun yetaklagan odam" hikoyasidagi cholning suratlarida ham mavjud edi: *"Huvillab yotgan qishloqlar, egalari tashlab ketgan uylar, o'ziga chorlab turgan qabristonlar, o'lim isi kelib turgan har xil qurollar, yig'layotgan ayollar va bolalar,*

*biyday dalani bosib ketgan o'laksaxo'r quzg'unlar, murdalar ortilgan aravalar, panjarali kameralar, yonib ketgan qishloq, sirli maxluqlar, yirtqich hayvonlar...qovjirab qolgan gullar*" [4.8] – bunday manzaralarga urg'u berish adabiy qahramonlarning ichki buzilishi, ruhiy olamining izdan chiqishi tufayli fojiali ehtirosga tashnalik, soxta qadriyatlariga bog'lanish bilan insonning umumiy dunyoqarashi buzilishi oqibati edi.

**Xulosa.** Nazar Eshonqul ijodi o'zbek adabiyotida hayot va o'lim konsepsiyasining yangi estetik modelini yaratgan. Uning badiiy-falsafiy qarashlari, ramzlar tizimi, timsollar vositasida ifodalangan hayotiy haqiqatlari, inson ruhiyatining eng nozik va murakkab qatlamlarini yoritishga yo'naltirilganligi bilan o'ziga xos adabiy hodisa sifatida e'tirof etilishi zarur. Adib asarlarida o'lim, o'liklik, qabr, tobut, arvoq, tirilish va ruhiy yemirilish bilan bog'liq obrazlar syujetni harakatlantiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib, ular orqali insonning hayot mazmuni, erkinligi va mavjudlik mohiyati haqidagi murakkab savollar ilgari surilgan. Demak, Nazar Eshonqul ijodi zamonaviy o'zbek nasrida tanatologik tafakkurning eng yorqin namoyonlaridan biri bo'lib, unda o'lim motivi inson va jamiyat haqidagi teran falsafiy mushohadalarni ifodalovchi markaziy estetik kategoriya darajasiga ko'tarilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сафонова Т. В. Оппозиция жизнь/смерть в творчестве А. А. Фета. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Орёл, 2008. – Б. 3
2. Eshonqul.N. Kitob bandasi: maqolalar va esselar. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 374.
3. Saidmuradova S. "Go'ro'g'li" romanida badiiy uslub va psixologik tasvirlar // Til va adabiyot ta'limi. – T aoshkent, 2022. – №2. – B. 3–8.
4. Эшонкул Н. Сайланма I: хикоялар. – Тошкент: Академнашр, 2022. – 512 б.
5. Эшонкул Н. Сайланма II: роман ва қиссалар. – Тошкент: Академнашр, 2022. – 576 б.
6. Rahmatullayev N. Nazar Eshonqul mifopoetikasi. Filol. fan. b. fals. dok. diss. – Samarqand. 2024. B. 15
7. Давронова Ш. Истиклол даври ўзбек романларида Шарқ ва Ғарб аъналарининг бадий синтези. Филол. фан. д-ри дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 253
8. Яшина А. Художественная танатология Н. А. Некрасова. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2017. – С. 17.